

**IJTIMOIIY TARMOQLARDA RAQAMLI
IDENTIFIKATSIYANING AHAMIYATI**

Norqulov Akbar Uroqovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

bo'lim boshlig'i, PhD

akbarnorqulov92@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada identifikatsiyaning obrazlari va ularning nazariy diskursdagi aks etishi chuqur tahlil qilinadi. Madaniyat paradigmasining o'zgarishi bilan birga, ushbu tasvirlarning qanday tarzda o'zgargani va zamonaviy raqamli muhitda «raqamli identifikatsiya»ning o'rni va strukturasi o'zgarishi batafsil yoritilgan. Bunda, virtual tarmoq kommunikatsiyasi kontekstida shaxsni identifikatsiya qilish usullarining yangi yo'nalishlari va ehtiyojlari ko'rib chiqilgan. Bugungi kunda identifikatsiya jarayonlari har xil sohalarda, jumladan falsafada, madaniyatshunoslikda, psixologiyada, shaharshunoslikda va boshqa ko'plab sohalarda keng muhokama qilinmoqda. Bularning barchasi, zamonaviy madaniyat paradigmasida identifikatsiyaning faqatgina kommunikatsiya orqali amalga oshirilishi mumkinligi bilan bog'liqdir. Shunday qilib, bu jarayonlarning turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilishi zamonaviy jamiyatlardagi kommunikativ o'zgarishlarni, texnologik rivojlanishlarni va raqamli madaniyatning o'ziga xosligini aks ettiradi.

Zamonaviy identifikatsiya strategiyalari va taktikalarining qisqacha umumlashmasi esa bizni raqamli madaniyat kontekstiga olib kiradi. Yangi media texnologiyalari, raqamli kommunikatsiya vositalari va tarmoq asosidagi aloqalar yangi identifikatsiyalarni yaratish zaruratini tug'diradi. Bu esa o'z navbatida identifikatsiyaning asoslarini qayta shakllantirishga olib keladi. Shaxslar va tashkilotlar o'z kimligini virtual va haqiqiy hayotda qanday taqdim etishlarini o'zgartirishga majbur bo'ladilar. Identifikatsiyaning shakllari va amaliyotlari

o'zgargan va modifikatsiyalangan, shu bilan birga, ularning yangi shakllari va modellarini ishlab chiqish zarurati paydo bo'lgan.

Maqolada shuningdek, identifikatsiyaning yangi taqdimot shakllari va amaliyotlari o'rganiladi. Bu, o'z navbatida, shaxsni yoki guruhni raqamli va jismoniy makonlarda qanday qilib to'liq va aniq identifikatsiya qilish mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqola identifikatsiyaning yangi asoslari haqida savollarni ko'tarib, bu masalani chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Raqamli madaniyat, o'zgarib borayotgan texnologiyalar va kommunikatsiya vositalari shaxsni tasdiqlash va aniqlashning yangi usullarini talab qilmoqda. Bularning barchasi zamonaviy madaniyatda identifikatsiya jarayonining va uning shakllarining yangi aspektlarini yaratishga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Raqamli dunyo, ijtimoiy tarmoq, internet, raqamli identifikatsiya.

ВАЖНОСТЬ ЦИФРОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Норкулов Акбар Урокович

Ташкентский государственный юридический университет
заведующий кафедрой, PhD
akbarnorqulov92@gmail.com

Аннотация: в статье глубоко анализируются образы идентичности и их отражение в теоретическом дискурсе. В нем подробно описано, как эти образы менялись вместе со сдвигом культурной парадигмы и меняющейся ролью и структурой «цифровой идентичности» в современной цифровой среде. При этом были рассмотрены новые направления и потребности методов идентификации личности в условиях виртуальной сетевой коммуникации. Сегодня процессы идентичности широко обсуждаются в различных областях, включая философию, культурологию,

психологию, урбанистику и многие другие. Все это связано с тем, что в парадигме современной культуры идентификация может реализоваться только через общение. Таким образом, изучение этих процессов различными исследователями отражает коммуникативные изменения в современном обществе, технологические разработки и уникальность цифровой культуры.

Краткое изложение современных стратегий и тактик идентичности переносит нас в контекст цифровой культуры. Новые медиа-технологии, цифровые коммуникационные инструменты и сетевое общение создают необходимость создания новой идентичности. Это, в свою очередь, приводит к перекройке основ идентичности. Отдельные лица и организации вынуждены менять то, как они представляют свою личность в виртуальной и реальной жизни. Формы и практики идентификации изменяются и модифицируются, и в то же время возникает необходимость разработки новых их форм и моделей.

В статье также исследуются новые формы и практики презентации идентичности. Это, в свою очередь, показывает, как человека или группу можно полностью и точно идентифицировать в цифровых и физических пространствах. В то же время статья поднимает вопросы о новых основаниях идентификации и призывает к более глубокому анализу этого вопроса. Цифровая культура, меняющиеся технологии и средства связи требуют новых методов проверки личности и идентификации. Все это приводит к созданию новых аспектов процесса идентификации и его форм в современной культуре.

Ключевые слова: цифровой мир, социальная сеть, интернет, цифровая идентичность.

THE IMPORTANCE OF DIGITAL IDENTIFICATION IN SOCIAL NETWORKS

Norqulov Akbar Urokovich

Head of Department, Tashkent State Law University

PhD

akbarnorqulov92@gmail.com

Annotation: *the article provides an in-depth analysis of the images of identity and their reflection in theoretical discourse. Along with the change in the cultural paradigm, it is described in detail how these images have changed and the role and structure of "digital identification" in the modern digital environment have changed. In this regard, new directions and needs for methods of personal identification in the context of virtual network communication are considered. Today, identification processes are widely discussed in various fields, including philosophy, cultural studies, psychology, urban studies and many others. All this is due to the fact that in the modern cultural paradigm, identification can only be realized through communication. Thus, the study of these processes by various researchers reflects the communicative changes in modern society, technological developments and the specificity of digital culture.*

A brief summary of modern identification strategies and tactics brings us to the context of digital culture. New media technologies, digital communication tools and network-based connections create the need to create new identities. This, in turn, leads to a reshaping of the foundations of identity. Individuals and organizations are forced to change how they present their identity in virtual and real life. Forms and practices of identity have changed and modified, and at the same time, the need to develop new forms and models of them has arisen.

The article also examines new forms and practices of presentation of identity. This, in turn, shows how an individual or group can be fully and

SJIF: 5.051

accurately identified in digital and physical spaces. At the same time, the article raises questions about the new foundations of identity and encourages a deeper analysis of this issue. Digital culture, changing technologies and means of communication require new ways of confirming and identifying the individual. All this leads to the creation of new aspects of the process of identification and its forms in modern culture.

Keywords: digital world, social network, internet, digital identity.

Kirish.

Zamonaviy axborot asrining globallashuvi sharoitida raqamli identifikatsiya tizimlari jamiyat hayotining barcha sohalarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda jahonning ko'plab mamlakatlarida raqamli identifikatsiya vositalari insonlarning huquqlarini ta'minlash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va iqtisodiy rivojlantirishni asosiy omilga aylangan.

Raqamli identifikatsiya tizimlari – bu shaxslarni yoki obyektlarni noyob raqamli ma'lumotlar orqali tanib olish imkonini beruvchi texnologik yechimdir. Mazkur identifikatsiya tizimlari turli soxalar uchun qulay muhit yaratib berishga xizmat qilmoqda, xususan, xizmatlarni masofadan turib taqdim etish, ijtimoiy manzilligini ta'minlash imkonini bermoqda. Bugungi kunda zamonaviy raqamli identifikatsiya tizimlari biometrik texnologiyalarning takomillashuvi, sun'iy intellect va mashinali o'rganish tendensiyalardan foydalangan holda rivojlanib bormoqda. Lekin, raqamli identifikatsiya tizimlarini to'liq amalga oshirishda texnik, huquqiy muommolarga duch kelmoqda. Raqamli identifikatsiya tizimlarining rivojlanib borishi davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni takomillashtirishning muhim vositasi ko'rilmogda.

Asosiy qism.

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning muhim ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat muloqot manbayi, balki kishilar o'rtasida turli xil ma'lumotlar almashiladigan, ishlarni, xizmatlarni bajaradigan platformaga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlar muloqot vositasi bilan birga zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, siyosat va ta'lim sohalarida ham muhim o'rin egallagan ko'p qirrali hodisa hisoblanadi.

Ijtimoiy jarayonlarining raqamlashtirilishi insonning o'zini anglashga, ya'ni ijtimoiy o'zligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Global dunyoda ijtimoiy tarmoqlarning tobora rivojlanib borishi raqamli identifikatsiya tizimlarini tartibga solinishini yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Identifikatsiya so'zining asl ma'nosi lotincha **“identifaco”** so'zidan kelib chiqqan bo'lib o'xshashlikni tan olish, bir xil ekanligini aniqlash, tenglashtirish degan ma'nolarni anglatadi¹.

Raqamli identifikatsiya bo'yicha bir qator olimlar o'z qarashlarini bildirib o'tgan. Xususan, A.Puchkoning fikriga ko'ra shaxsni raqamli ma'lumotlar orqali tasdiqlash imkonini beradigan texnologiyalar va aqlli qurilmalar to'plami: biometrik ma'lumotlar, (barmoq izlari, yuzni skanerlash, yuzning tor ko'rinishi), raqamli pasportlar yoki ID, parollar, PIN-kodlar, QR-kodlar².

A.Aksakovaning talqinicha raqamli identifikatsiya – shaxsni tasdiqlash shakli turlicha bo'lishi mumkin: passport va boshqa hujjatlarni almashtiradigan

¹ Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. М.: Русский язык. 1998. – 848 с.

² Пучков О. А. Идентификация субъектов в цифровом пространстве: несколько правовых проблем // Правопорядок: история, теория, практика. 2019. № 1 (20). С. 6—9.

guvohnomadan tortib, smartfonga o'rnatilgan ilovagacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi³.

M.Yegorovanning taklif berishicha raqamli identifikatsiya Bu asosan identifikatsiya va autentifikatsiya bilan bog'liq texnik va tashkiliy-texnik usullar bo'lib, shuning uchun shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun ishlab chiqilgan va tasdiqlangan talablar zarur⁴.

Keltirilgan olimlarning fikridan kelib chiqib ta'kidlash mumkin, raqamli identifikatsiya – bu shaxsni raqamli sharoitda aniqlash va tasdiqlash jarayonidir. Raqamli identifikatsiya ma'lum bir insonning raqamli izini shakllantirish va saqlash orqali amalga oshiriladi, bu esa o'z navbatida shaxsni onlayn xizmatlardan foydalanish, electron hujjatlarni imzolash va boshqa raqamli funksiyalarni bajarish uchun aniqlash imkoni beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli identifikatsiya bilan bog'liq ayrim muammolar yuzaga kelib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq bugungi kunda dolzarbligini saqlab turibdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy foydalanish xususan, foydalanuvchining fotosuratlar, elektron pochta manzillari, telefon raqamlari, joylashuv manzillari turli maqsadlarda ruxsatsiz foydalanib kelinish holatiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Bugungi kunda, amaliyotda ba'zi bir tashkilot, OTM rektorlari hamda boshqa bir davlat organlari rahbar xodimlarining nomlariga soxta akkauntlar ochib qo'l ostidagi xodimlariga noqonuniy topshiriqlar berish holatlari uchrab turmoqda. Bundan tashqari, qo'lida plastik karta mavjud bo'lgan fuqarolarga o'zini "Bank

³ Основные тренды развития цифровой экономики в финансовой сфере. Правовые аспекты регулирования и практического применения / под ред. А. Г. Аксакова ; Государственная Дума РФ. М., 2019. 161 с.

⁴ Егорова, М. А. "Проблема цифровой идентификации личности в Российской Федерации и Европейском Союзе." Вестник университета имени ОЕ Кутафина 1 (89) (2022): 17-29.

xodimi” sifatida tanishtirib, mijozning shaxsiy ma’lumotlarini bilib olib oxirida uning hisobraqamidagi barcha pullarni noqonuniy o’zlashtirib olgan uddaburon “Bank xodimlari”, ya’ni firibgarlar toboro ko’payib bormoqda. Buning natijasida, fuqarolarimizning huquq va erkinliklari bilan birga ularning mulkiga ham putur yetkazilmoqda.

Bu o’rinda raqamli identifikatsiya bilan bog’liq bir qator muammo va ularga bo’lgan yechimlarni tahlil qilib o’tsak.

Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli identifikatsiyada ma’lumotlar himoyasi bilan bog’liq muannolar uchrab turibdi.

Bilamizki, raqamli identifikatsiya tizimlari shaxslar haqida ayrim ma’lumotlarni to’plab o’zida saqlab qolish imkoniyatim mavjud. Mazku ma’lumotlar kiberhujumlar uchun qimmatli ma’lumotlar hisoblanib, ko’pincha undan o’lja sifatida foydalanishadi. Bunday turdagi ma’lumotlarning buzilishi identifikatsiya ma’lumotlarining o’g’irlanishiga, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor qilinishiga hamda identifikatsiya ma’lumotlarining sizdirib chiqilishiga olib kelinadi.

Shuningdek, ko’pgina mamlakatlarda raqamli identifikatsiya tizimlari xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqiladi va boshqariladi. Bu esa o’z navbatida shaxslarning ma’lumotlari ustida davlat nazoratining kamayishiga olib keladi. Ayni shu holatda davlat shaxslarning ma’lumotlarini himoya qilish va nazorat qilish mexanizmini yo’qotib qo’yishi mumkin.

Ta’kidlab o’tish kerakki, biometrik identifikatsiya tizimlari (barmoq izlari, yuz tanib olish, ko’z tor pardasi) ayrim davlat va xo’jalik boshqaruv organlarida yildan yilga rivojlanib bormoqda. Biometrik ma’lumotlarning o’g’irlanishi yoki ularning buzib kirilish xavfi ham toboro oshib bormoqda.

Mazkur muammolarning yechimi sifatida bir qator takliflarni keltrib o‘tish mumkin. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda raqamli identifikatsiya tizimlaridan foydalanishda **texnologik yechim** sifatida markazlashtirilgan identifikatsiya tizimlarini yaratish. Bunda maxsus texnologiyalar asosida yaratilgan markazlashtirilgan identifikatsiya tizimlari yagona zaif nuqtalarni yo‘q qiladi va ma’lumotlar himoyasini kuchaytiradi.

Ma’lumotlar himoyasi bo‘yicha **qonunchilikni kuchaytirish** orqali ma’lumotlari himoyasini mustahkamlash mumkin. Shuningdek, ma’lumotlari buzilishi va xavfsizlik qoidalari buzilgan hollarda jarimalar va javobgarlik choralarini kuchaytirish orqali ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlash mumkin.

Xulosa.

Raqamli identifikatsiya tizimlari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, biroq ular bir qator murakkab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Maxfiylik, raqamli bo‘linish, nazorat va huquqiy masalalar raqamli identifikatsiya tizimlarining keng joriy etilishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar hisoblanadi. Bu muammolar nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarga ham ega bo‘lib, ularning yechimi ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy dunyoda raqamli identifikatsiya tizimlari fuqarolarga davlat xizmatlaridan foydalanish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish va tibbiy xizmatlar olish kabi imkoniyatlarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu afzalliklar bilan bir qatorda, ma’lumotlar buzilishi, shaxsiy hayot daxlsizligi, noqonuniy kuzatuv va raqamli tafovut kabi potentsial xavflar ham mavjud. Bu xavflar, ayniqsa, zaif qonunchilik bazasiga ega bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda yanada dolzarb hisoblanadi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun texnologik innovatsiyalar, qonunchilik bazasini takomillashtirish va ijtimoiy dasturlar majmuasini amalga oshirish talab etiladi. Markazsizlashtirilgan identifikatsiya tizimlari, kuchli shifrlash, ma'lumotlar himoyasi qonunchiligini takomillashtirish va raqamli savodxonlikni oshirish raqamli identifikatsiya muammolarini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

Qonunchilik bazasini takomillashtirish yo'nalishida milliy va xalqaro darajada koordinatsiya qilingan harakatlar zarur. Ma'lumotlar himoyasi, ma'lumotlardan foydalanish huquqi, raqamli identifikatsiya standartlari va ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha xalqaro kelishuvlar yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Raqamli identifikatsiya tizimlari muvaffaqiyatli joriy etilgan davlatlar tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Estoniya, Singapur, Hindiston va boshqa davlatlarning tajribasi asosida eng yaxshi amaliyotlarni o'zlashtirish va xatolarni takrorlamaslik kerak. Xalqaro hamkorlik orqali bilim va tajriba almashish raqamli identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish va global standartlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. М.: Русский язык. 1998. – 848 с.
2. Пучков О. А. Идентификация субъектов в цифровом пространстве: несколько правовых проблем // Правопорядок: история, теория, практика. 2019. № 1 (20). С. 6—9.

3. Основные тренды развития цифровой экономики в финансовой сфере. Правовые аспекты регулирования и практического применения / под ред. А. Г. Аксакова; Государственная Дума РФ. М., 2019. 161 с.

4. Егорова, М. А. "Проблема цифровой идентификации личности в Российской Федерации и Европейском Союзе." Вестник университета имени ОЕ Кутафина 1 (89) (2022): 17-2.